

RESPUBLIKA MIQYOSIDA “MAHALLA” AXBOROT TIZIMINI YARATISH VA LOYIHALASH MUAMMOLARI

Xabibullayeva Adiba Jobir qizi

O'zbekiston milliy universiteti,

«Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar»

fakulteti 1-bosqich magistranti

E.mail: rasulovaadibaxon23041999@gmail.com,

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida Respublika miqyosida “Maxalla” avtomatlashtirilgan tizimi yaratiladi. Dastlabki ishlovda ushbu xizmatni loyihalash ishlari olib boriladi. Web ilovada taqdim qilinishi mumkin bo'lgan xizmat turlari shakllari asosan xizmatni taqdim etuvchi tomonidan foydalaniladigan qismi shakllantiriladi.


Kalit so'zlar: ma'lumotlar bazasi, tizim.

Hozirgi davrda bizni o'rab turgan dunyodagi axborotlar oqimi juda ulkandir. Ular ulkan bo'lishiga qaramasdan yanada ko'payib bormoqda. Shuning uchun kattami - kichikmi tashkilotlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar tashkilotdagi mumkin bo'lgan barcha ishlarni tashkil etishga imkon beradigan ma'lumotlarni samarali, qulay tarzda olib borish muammosi yuzaga kelmoqda. Oldingi davrda biror tashkilotning ma'lumotlari qog'ozlarda, turli papkalarda saqlangan bo'lsa, hozirgi davrda esa deyarli barcha tashkilotlar kompyuterlashtirilgan usullar - katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali saqlashga yordam beruvchi berilganlar bazasidan foydalanadilar. Bugungi kunda tashkilot qanday bo'lishidan qat'iy nazar ular moliyaviy bo'ladimi, savdo tashkilotlari, sanoat bo'ladimi barchasining faoliyatini berilganlar bazasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuni aytish zarurki bugungi kunda axborot, axborot resurslari, kompyuter tarmoqlari va turli korporativ tizimlarga nisbatan tahdidlarni oldini olish asosi dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelmoqda. Chunki, har qanday korxonaning samarali faoliyat ko'rsatishida faqatgina moddiy, tabiiy, moliyaviy resurslarning o'zi yetarli emas. Ulardan qanday qilib samarali, oqilona foydalanish uchun o'sha sohadagi texnologiyalar haqida yetarlicha axborot bo'lishi talab etiladi. Mavjud bo'lgan axborot esa qolgan barcha resurslardan samarali foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradigan yagona resurs hisoblanadi. Axborotlar saqlanayotgan berilganlar bazasidagi ma'lumotlar maxfiy bo'lishi talab etiladi. Maxfiylik deganda alohida shaxslar yoki tashkilotlarning boshqa shaxslar yoki tashkilotlarga qachon, qancha miqdorda ma'lumotlar berilgani umumiy qilib aytganda qachon va qancha miqdorda ma'lumotlar almashinganligini aniqlash huquqi tushiniladi. Saqlanayotgan axborot undan foydalanilayotgan tashkilot uchun muhim hisoblanadi. U ya'ni axborot o'g'irlanmasligi va yo'qotilmasligi kerak. Shuning uchun ham deyarli barcha xorijiy mamlakatlarida, balki respublikamizda ham axborot tizimlarning muhofazasiga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Hozirgi davrda barcha sohalarida va turli tashkilot yoki muassasalarni qaramaylik o'zining elektron axborot tizimiga ega. Jamiyat vakillarining axborotlarga tez va oson tarzda qabul qila olishlari hozirgi kundagi yaratilayotgan dasturiy ta'minotlarning raqobaridan ham ko'rish mumkin.

Internet tarmog'ida ishlar ekanmiz undagi qulayliklar, tezkor imkoniyatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Masalan: Ixtiyoriy mamlakat yoki hududga elektron pochta jo'natish, masofadan turib boshqa kompyuterdan shaxsiy kompyuter sifatida foydalanish, web-sahifalardagi ma'lumotlar, roliklar orqali biror mahsulotni sotish yoki sotib olish va boshqa ulkan imkoniyatlar manzili deyish mumkin. Bulardan tashqari dunyoning ixtiyoriy burchagida joylashgan va o'z saytiga ega bo'lgan korxona, muassasa, ijtimoiy sohdaning barcha tarmoqlarning dasturiy ta'minotlari orqali axborotlar uzatish va qabul qilish mumkin. Bunday dasturlar boshqalardan alohida qulayliklari bilan ajralib turadi. Turli IT texnologiyalar taqdim etayotgan texnologiyalar asosida yaratilgan loyihalar, dasturlar va Internet tarmog'ining vujudga kelishi informatsiya tarqatishdagi vaqt, makon va moliyaviy kamchiliklar sezilarli darajada pasaydi yoki yo'qoldi deyish mumkin. Tabiiyki bularning barchasi axborot texnologiyalarining rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega.

Mahalla avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqishda birinchi navbatda ushbu sohaga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni saqlash va ular ustida amallarni to'g'ri bajarish uchun yaratiladigan tizimning berilganlar bazasini to'g'ri shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Sohani o'rganish jarayonida uning barcha elementlarini o'rganib chiqish orqali berilganlar bazasining to'g'ri berilganlar chizmasi shakllantirilgan (rasm).



Ushbu chizma orqali sohaga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni to'g'ri saqlash ular ustida bajariladigan amallarni tizim yordamida foydalanuvchilarga to'g'ri yetkazib berish tizimning samaradorligini oshiradi. Tizim orqali oldingi muammolarni ya'ni mahallada barcha fuqarolarning muammo va takliflarini ko'rib chiqishni osonlashtirish, arizalar va boshqa hujjatlar bilan ishlashni osonlashtirishga erishiladi.

1. Hakimov M.X., Gaynazarov S.M. “Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari” darslik Fan va texnologiya. 2015, ISBN: 978–9943–975–98–9.
2. Bassey D Bassey. “Sql database programming simplifieda step by step practical guide to learning and understanding SQL Database from Beginners to Advanced level”. 2021, ISBN-13: 979-8489590914
3. Maxarov T.A. “Axborot tizimlari nazariy asoslari” o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2012.